XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 31-iyul VI-84-95-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻini tasdiqlash toʻgʻrisida

“Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy-hududiy tuzilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli “Yoʻl xaritasi” hamda “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xorazm viloyati maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan oʻtkazishni muvofiqlashtirish boʻyicha hududiy komissiyasining Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻini tasdiqlash toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullansin.

2. Quyidagilar:

Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan maʼmuriy-hududiy chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga;

Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan maʼmuriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimi oʻrinbosari S.Bekchanov ushbu qarorni Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXIMOV JO‘RABEK RAXIMOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-84-95-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati bilan maʻmuriy-hududiy chegara chizigʻining
TAVSIFI

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-aprelda “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan oʻtkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni oʻtkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi nizom ijrosi yuzasidan Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Buxoro viloyati hamda Turkmaniston yerlari bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash boʻyicha tavsifi ishlab chiqildi.

Xorazm viloyatining Qoraqalpogʻiston Respublikasi bilan chegaralarini belgilashda boshlangʻich nuqta qilib Turkmaniston va Qoraqalpogʻiston Respublikasi bilan Xorazm viloyati chegara chizigʻining tutashgan joyi 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 41° 51'53,096", sharqiy uzunlik koordinatlari 60° 9' 5,588").*

Qoraqalpogʻiston Respublikasi yerlari bilan 1–50-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Devonkoʻl zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 576 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtish orqali Shang‘i zovuriga oʻtadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 944 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlni kesib oʻtib, soʻng Shang‘i zovuri boʻylab yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1370 metr masofada Qilichniyozboy kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 52' 21,230" sharqiy uzunlik 60° 10' 52,573").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi Qilichniyozboy kanalining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 715 metr masofada kanalga tutashadi va kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 240 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4677 metr masofani oʻtib, suv oʻtkazgichda joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 54' 52,139" sharqiy uzunlik 60° 8' 43,656").*

3 – nuqtadan chegara chizigʻi suv oʻtkazgichdan zovur dambasiga oʻtadi va damba boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan

holda 1804 metr masofani oʻtib, Gurlan zovuri boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 55'46,344" sharqiy uzunlik 60° 8' 35,417").*

4 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda Gurlan zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 264 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtish orqali boshqa zovurga oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1351 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 68 metr masofada Gurlan zovurini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 56'30,050" sharqiy uzunlik 60° 9' 2,269").*

5 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Gurlan zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 242 metr masofada ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 897 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 57' 0,629" sharqiy uzunlik 60° 9' 24,577").*

6 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 1327 metr masofani oʻtib, keyin zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 321 metr masofada Gurlan zovurini kesib oʻtib, soʻng zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 95 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 56'51,583" sharqiy uzunlik 60° 10' 37,386").*

7 – nuqtadan chegara chizigʻi Gurlan zovuridan boshqa zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1915 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 709 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1225 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 56' 4,598" sharqiy uzunlik 60° 12' 57,648").*

8 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 445 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 219 metr masofada zovur dambasiga oʻtib, keyin damba boʻylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1216 metr masofada Oqqum zovurini kesib oʻtib, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 66 metr masofada zovurga oʻtib, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 757 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 56'29,111" sharqiy uzunlik 60° 13' 55,459").*

9 – nuqtadan chegara chizigʻi Oqqum zovurini kesib oʻtish orqali dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 279 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 107 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1708 metr masofani oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlini, ariqni kesib oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 572 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy

yoʻnalishda 1170 metr masofada ariqqa tutashadi va sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 335 metr masofada kanalni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 593 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 57′ 56,514″ sharqiy uzunlik 60° 15′ 34,571″).*

10 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtish orqali zovurga oʻtadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 488 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 851 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 289 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 413 metr masofani oʻtib, Mangʻitarna kanali boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 58′41,601″ sharqiy uzunlik 60° 15′ 51,296″).*

11 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Mangʻitarna kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 670 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1336 metr masofani oʻtib, soʻng Mangʻitarna kanalidan dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 626 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻlidan haydalma yer dambasiga oʻtadi va damba boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 665 metr masofada zovur zovurga oʻtib, keyin zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 142 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 424 metr masofani oʻtib, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 453 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda Amudaryo irmogʻining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 654 metr masofada Amudaryo qirgʻogʻiga oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 488 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda890 metr masofada Amudaryo daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 59′ 8,997″ sharqiy uzunlik 60° 18′ 45,221″).*

12 – nuqtadan chegara chzigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 724 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1613 metr masofani oʻtib, soʻng ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1025 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 91 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 217 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 502 metr masofani oʻtib, Amudaryo qirgʻogʻida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 58′31,989″ sharqiy uzunlik 60° 21′ 2,787″).*

13 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 2949 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 374 metr masofani oʻtib,

Amudaryo qirgʻogʻida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 57′ 52,392″ sharqiy uzunlik 60° 23′ 7,429″).*

14 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi daryoning oʻzani boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2965 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2897 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy janubiy yoʻnalishda 9290 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻi boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 52′17,985″ sharqiy uzunlik 60° 27′ 22,439″).*

15 – nuqtadan chegara chizigʻi Amudaryo daryosidan ariqqa oʻtadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 861 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1836 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 471 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1046 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 51′10,131″ sharqiy uzunlik 60° 28′ 34,439″).*

16 – nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 772 metr masofada zovurga tutashadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 355 metr masofada zovurni kesib oʻtib, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 411 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 970 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 50′26,378″ sharqiy uzunlik 60° 28′ 39,282″).*

17 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan ariqga oʻtadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 327 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 566 metr masofani oʻtib, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 432 metr masofani oʻtib, soʻng ariqni kesib oʻtib, haydaladigan yer dambasi bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 744 metr masofada ariqni, kanalni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 280 metr masofada zovurni va dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻngra ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 895 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 49′ 36,534″ sharqiy uzunlik 60° 29′ 35,855″).*

18 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 123 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali sharqiy yoʻnalishda 598 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy yoʻnalishda 140 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 933 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 49′ 24,294″ sharqiy uzunlik 60° 30′ 36,108″).*

19 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 1252 metr masofani

oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 671 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 643 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1171 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 47'56,187" sharqiy uzunlik 60° 31' 59,308").*

20 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 1911 metr masofada Amudaryo daryosini kesib oʻtib, daryo oʻzaniga oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1727 metr masofada daryo qirgʻogʻiga oʻtib, keyin quruq chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 520 metr masofani oʻtib, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 261 metr masofada kanalni kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 46' 7,578" sharqiy uzunlik 60° 32' 35,273").*

21 – nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 321 metr masofada ariqqa tutashadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 340 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1436 metr masofada zovurga oʻtadi, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 520 metr masofani oʻtib, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 138 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 45'11,001" sharqiy uzunlik 60° 32' 57,452").*

22 – nuqtadan chegara chizigʻi avval zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1218 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda oʻng tomoni bilan 430 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda oʻng tomoni bilan 1028 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 691 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 44' 47,202" sharqiy uzunlik 60° 34' 24,170").*

23 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtish orqali zovurga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3009 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 44' 24,619" sharqiy uzunlik 60° 36' 30,326").*

24 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 584 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 500 metr masofada baliq hovuz dambasiga oʻtib, keyin damba boʻylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 215 metr masofada dala tuproq yoʻlini va ariqni kesib oʻtib, soʻng umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 419 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 410 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 230 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy yoʻnalishda 216 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 44' 47,164" sharqiy uzunlik 60° 37' 37,235").*

25 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻzani boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4064 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy yoʻnalishda 3993 metr masofani oʻtib, daryoning oʻng qirgʻogʻida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 41′ 18,409″ sharqiy uzunlik 60° 40′ 19,920″).*

26 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 5983 masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Amudaryo dayosi qirgʻogʻiga tutashadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1279 metr masofada daryoni kesib oʻtib, soʻng daryoning oʻng qirgʻoqi bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 189 metr masofani oʻtib, qirgʻoq boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 38′16,928″ sharqiy uzunlik 60° 43′ 31,800″).*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi Amudaryo daryosi qirgʻogʻidan baliq hovuz dambasiga tutashadi va damba boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 390 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 278 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 271 metr, soʻngra avtomobil yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 392 metr masofada kanalni kesib oʻtib, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 628 metr masofani oʻtib, soʻng avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 248 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1176 metr masofani oʻtib, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2296 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 151 metr masofani oʻtib, soʻng dala yoʻlini kesib oʻtish orqali ariqqa oʻtadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 632 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chegara chizigʻi orqali umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 787 metr masofani oʻtib, damba boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 35′51,361″ sharqiy uzunlik 60° 46′ 38,763″).*

28 – nuqtadan chegara chizigʻi damba boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 909 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 494 metr masofani oʻtib, soʻng damba va dala tuproq yoʻli boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 718 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 659 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻli boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 349 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 35′ 18,340″ sharqiy uzunlik 60° 48′ 6,295″).*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1654 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 34′ 52,734″ sharqiy uzunlik 60° 49′ 5,059″).*

30 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 234 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1990 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 58 metr masofani oʻtib, soʻng zovurga oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning

suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 269 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtib, soʻngra yoʻlning janub tomoni bilan yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 785 metr masofani oʻtib, umumiy janubiy yoʻnalishda 905 metr, keyin dala tuproq yoʻli va damba boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 199 metr masofada ariqqa oʻtadi, soʻng umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 369 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 724 metr, soʻngra umumiy janubiy yoʻnalishda 912 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1320 metr masofani oʻtib, soʻng chekga oʻtadi va chekning chap tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 459 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 123 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan 922 metr masofada ariqqa oʻtib, ariq boʻyidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 31'39,081" sharqiy uzunlik 60° 52' 20,629").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan kanalga oʻtadi va kanalning umumiy sharqiy yoʻnalishda suv oqimiga qarshi 1046 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 167 metr masofani oʻtib, soʻngra dala tuproq yoʻli shimol boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 624 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 195 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 1563 metr masofani oʻtib, ariqqa tutashadi va ariq, damba boʻylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 880 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 31'27,374" sharqiy uzunlik 60° 55' 2,138").*

32 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 524 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1524 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻi boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 30' 43,315" sharqiy uzunlik 60° 55' 55,404").*

33 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6667 metr masofada daryoning chap qirgʻogʻidan oʻng qirgʻogʻiga oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 28'18,045" sharqiy uzunlik 60° 59' 8,267").*

34 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1903 metr masofani oʻtib, ariqqa oʻtadi va keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1552 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 27' 58,841" sharqiy uzunlik 61° 1' 21,253").*

35 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqni dala tuproq yoʻlini kesib oʻtish orqali zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1594 metr masofada dambaga oʻtadi, keyin damba, dala tuproq yoʻli boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 688 metr masofani oʻtadi va soʻng damba boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 812 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida

joylashgan 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 26′ 59,540″ sharqiy uzunlik 61° 2′ 29,978″).*

36 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1634 metr masofada Amudaryo daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻiga tutashadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryo suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1054 metr masofani oʻtib, qirgʻoqda joylashgan 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′57,221″ sharqiy uzunlik 61° 2′ 4,883″).*

37 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 707 metr masofani oʻtib, haydalma yer dambasiga oʻtadi va damba boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 780 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, kanalga oʻtadi soʻngra kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 995 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 25′16,812″ sharqiy uzunlik 61° 3′ 3,822″).*

38 – nuqtadan chegara chizigʻi kanalni, dala tuproq yoʻlini, ariqni kesib oʻtib haydalma yer dambasiga oʻtadi va damba boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 350 metr masofani oʻtib, zovurga oʻtadi keyin zovurning suv oqimi boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2552 metr masofada zovurni, ariqni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi tomon 232 metr masofada ariq boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 24′ 30,375″ sharqiy uzunlik 61° 4′ 29,269″).*

39 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi tomon 269 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 407 metr masofani oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda 282 metr masofani oʻtib haydalma yer dambasiga oʻtadi va damba boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 481 metr masofani oʻtib zovurga tutashadi, soʻng zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 134 metr masofani oʻtadi va keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 607 metr masofani oʻtadi, soʻng toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 111 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻngra yoʻlning janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 574 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 1022 metr masofani oʻtib, Amudaryo daryosi qirgʻogʻida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′ 55,811″ sharqiy uzunlik 61° 6′ 40,050″).*

40 – nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 2650 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 23′18,817″ sharqiy uzunlik 61° 8′ 19,519″).*

41 – nuqtadan chegara chizigʻi Amudaryo daryosi qirgʻogʻidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 163 metr masofada zovurga oʻtadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 440 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 648 metr masofani

oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2331 metr masofani oʻtadi va soʻngra dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 264 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 610 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 648 metr masofani oʻtib, soʻngra ariq va dala tuproq yoʻli boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1208 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 21'47,945" sharqiy uzunlik 61° 11' 20,327").*

42 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻli, damba boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2595 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 102 metr masofani oʻtib, soʻng Amudaryo daryosi qirgʻogʻiga oʻtadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1210 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 20'59,251" sharqiy uzunlik 61° 13' 43,736").*

43 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda 2477 metr masofada Amudaryo daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻiga oʻtadi va umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7420 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, temir yoʻl boʻyidagi 44-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 17' 14,142" sharqiy uzunlik 61° 16' 38,585").*

44-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl boʻyidan Amudaryo daryosiga oʻtadi va umumiy janubiy yoʻnalishda Amudaryo daryosining suv oqimiga qarshi oʻzani bilan 4331 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 6763 metr masofani oʻtib, soʻng sharqiy yoʻnalishda 3553 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1208 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻidagi 45-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 13' 11,222" sharqiy uzunlik 61° 24' 3,840").*

45-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 788 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 9010 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1544 metr masofani oʻtib, soʻngra gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 3160 metr masofani oʻtib, A380 avtomobil yoʻlida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 20'16,753" sharqiy uzunlik 61° 24' 14,868").*

46-nuqtadan chegara chizigʻi A380 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va quruq chiziq boʻylab shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3057 metr masofada joylashgan 47-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41° 21' 18,370" sharqiy uzunlik 61° 25' 55,528").*

47-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali sharqiy yoʻnalishda 36936 metr masofada joylashgan 48-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 41° 14' 35,945" sharqiy uzunlik 61° 50' 27,649").*

48-nuqtadanchegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 55719 metr masofada joylashgan 49-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 53'13,178" sharqiy uzunlik 62° 17' 50,927").*

49-nuqtadanchegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 5625 metr masofani oʻtib, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm, Buxoro viloyati chegara chiziqlari tutashgan joyida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 55'21,077" sharqiy uzunlik 62° 20' 42,195").*

Buxoro viloyati yerlari bilan 50–53-nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi quyidagicha:

50 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 13445 metr masofani oʻtib, 51-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 50' 14,274" sharqiy uzunlik 62° 27' 30,027").*

51 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 7756 metr masofani oʻtib, 52-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 46'17,482" sharqiy uzunlik 62° 25' 38,904").*

52 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali A-380 avtomogistral yoʻlini kesib oʻtadi va janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 33677 metr masofani oʻtib, Turkmaniston va Buxoro hamda Xorazm viloyatlari chegara chiziqlari tutashgan joyida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40° 34' 52,239" sharqiy uzunlik 62° 7' 3,665").*

Xalq deputatlari Xorazm viloyati
Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-84-95-12-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

